



ILMIY ELEKTRON JURNAL

BANKLAR FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISH

G'afforov Shoxrux Komil o'g'li

Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti magistratura fakulteti 1-bosqich talabasi

shoxruxgafforov449@gmail.com

Annotation

Maqolada bank sohasida innovatsion innovatsion texnologiyalarning imkoniyatlari, banklar uchun xavfsiz biznes maydonini yaratish uchun zamonaviy xavfsizlik tizimlarini joriy etish zarurati, axborot xavfsizligi sohasidagi asosiy tendentsiyalar va yetakchi texnologiyalar, foydalanuvchi ma'lumotlari va resurslari bilan bog'liq tahdid va xavflarni tez va o'z vaqtida kuzatib borishga ham alohida e'tibor qaratilgan.

Аннотация

В статье рассмотрены возможности инновационных инновационных технологий в банковской сфере, необходимость внедрения современных систем безопасности для создания безопасной бизнес-среды для банков, основные тенденции в области информационной безопасности и ведущих технологий, угрозы и риски, связанные с пользователем. данные и ресурсы обсуждаются быстро и своевременно. Особое внимание уделяется последующим мерам.

Annotation

In the article, the opportunities of innovative innovative technologies in the banking sector, the need to introduce modern security systems to create a safe business environment for banks, the main trends in the field of information security and leading technologies, threats and risks related to user data and resources are quickly and timely discussed. special attention is paid to follow-up.

Kalit so'zlar

bank tizimlari, axborot xavfsizligi, raqamlashtirish, raqamli iqtisodiyot, elektron xizmatlar, smart officelar, mobil ilova, blokcheyn texnologiyalari.

Ключевые слова

банковские системы, информационная безопасность, цифровизация, цифровая экономика, электронные услуги, умные офисы, мобильное приложение, технологии блокчейн.

Keywords

banking systems, information security, digitization, digital economy, electronic services, smart offices, mobile app, blockchain technologies.

Kirish

Bugungi kunda raqamli texnologiyalari, barcha sohalarda bo‘lgani kabi bank va moliya sohasiga ham keng joriy etilgan. Mamlakatimiz aholisi raqamli banklar orqali kartadan kartaga pul o‘tkazishi, soliq, kommunal to’lovlarini amalga oshirish, kreditlarni to’lash, onlayn omonat va mikroqarzlarni rasmiylashtirish, onlayn valyuta konversiyalarini amalga oshirish va boshqa bank xizmatlaridan foydalanmoqda. Lekin hozirgi rivojlanib borayozgan zamonda mijozlar yanada ko‘proq qulayliklardan foydanish, o‘z vaqt va sarmoyalarini tejash uchun harakat qilmoqdalar. Mijozlar uchun yo‘l tirkantliklari, xarajatlari va banklardagi uzundan uzoq navbatlar noqulaylik tug‘dirmoqda. Muammolar yechimlaridan biri bu banklarning mobil ilovasini yanada takomillashtirish va yangilashlardan hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida 05.10.2020 yildagi PF-6079-son farmoni, “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida ”gi 2020-yil 6-oktabrdagi PQ-4851-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.04.2020 yildagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4699-sonli qarorlarida iqtisodiyotda bank sohasida raqamlashririshni rivojlantirish to‘g‘risida vazifalar ko‘rsatilgan[1-3].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Kris Skinner o‘z ilmiy ishida bank sektorida raqamli texnologiyalarning roli va ularning moliya sohasiga olib kelgan o‘zgarishlarini batafsil tahlil qilgan. Uning fikriga ko‘ra, raqamli texnologiyalar xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirib, banklar uchun yangi xizmatlarni arzonroq va tezroq taqdim etish imkonini beradi [4]. Polyanin A.V., Dolgova S.A., va Ivashenko T.N. o‘z tadqiqotlarida raqamli texnologiyalarning bank tizimidagi ahamiyatini o‘rganib, raqamlashtirish jarayonlarining banklar uchun raqobatbardosh ustunlik yaratishda muhim o‘rin tutishini ko‘rsatganlar. Ular raqamlashtirishni amalga oshirish orqali banklarning xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash mumkinligini ta’kidlaganlar [5]. Gartner kompaniyasining tadqiqotida raqamlashtirish jarayonlari korxonalar uchun yangi imkoniyatlar yaratish vositasi sifatida ko‘rib chiqilgan. Raqamlashtirish orqali kompaniyalar yangi qo‘srimcha qiymat yaratar ekan, bu jarayon bank sohasida ham qo‘llanilishi mumkin [6]. Kulagin V., Suxarevski A., va Meffert Y. o‘z asarlarida bank tizimidagi raqamli transformatsiya jarayonlarini batafsil yoritib, raqamlashtirish bank xizmatlarining samaradorligini oshirish bilan birga, xavfsizlik choralarini ham kuchaytirishini ko‘rsatganlar [7]. Chaykina Y.V. banklar uchun raqamlashtirishning

imkoniyatlarini o'rganib, raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali mijozlarga xizmat ko'rsatish qulayligi oshganligini ta'kidlagan. U raqamlashtirish jarayoni orqali mijoz ehtiyojlariga javob beruvchi xizmatlarni takomillashtirish mumkinligini ta'kidlaydi [8]. Bikov A.Y. o'z tadqiqotida raqamli texnologiyalarning bank sektoriga kiritilishi moliyaviy barqarorlikka erishishda muhim o'rinni tutishi haqida fikr bildiradi. Bykov bank tizimidagi o'zgarishlarning iqtisodiyotga ta'sirini tadqiq qilgan [9]. Alzarova A.A. va Raxmatillayeva M. O'zbekistonda bank tizimini raqamlashtirish jarayonlarining istiqbollarini tadqiq qilganlar va raqamli transformatsiyaning mijozlar uchun qulaylik yaratishdagi rolini ta'kidlaganlar [10]. Axmedov U. o'z tadqiqotida banklarning raqamli iqtisodiyotga tayyorligi va zamonaviy texnologiyalarni kiritish zarurati haqida mulohaza yuritib, bu jarayonning banklar uchun raqobatbardoshlikni oshirishdagi rolini tadqiq etadi [11]. Mamedov M.A. tomonidan olib borilgan tadqiqotlar raqamli texnologiyalarning bank tizimiga ta'siri haqida batafsил ma'lumot beradi. U, xususan, raqamli texnologiyalar yordamida bank xizmatlarini avtomatlashtirish va mijozlarga qulaylik yaratish imkoniyatlarini tahlil qiladi [12]. Pasupa Kitsuchart, Tungjitnob Suchat, va Suntisrivaraporon Boonatawee mobil banking ilovalarining imkoniyatlarini tadqiq etib, ularning mijozlarga xizmat ko'rsatishdagi qulayligini ta'kidlaydi. Ularning tadqiqoti mobil banking orqali bank xizmatlarini optimallashtirish usullarini ochib beradi [13]. Francis B., Hasan I., va Kullu A.M. o'z ishlarida banklar uchun biznes modellarni raqamlashtirish orqali modernizatsiya qilish imkoniyatlarini tadqiq qilgan. Ular raqamlashtirish banklarga mijozlar ehtiyojlariga mos xizmatlarni taqdim etish imkonini berishini qayd etganlar [14]. Kotov K.Yu. o'z asarida Rossiya banklarining raqamli innovatsion imkoniyatlarini tahlil qilgan va ularni raqamlashtirish jarayonida muvaffaqiyat qozonish uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlarni ko'rsatib bergan [15].

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada analiz, sintez, nazariy umumlashtirish, induksiya, deduksiya va boshqa usullardan foydalanilgan. Tadqiqotning metodologik va axborot bazasi sifatida iqtisodchi olimlarning asarlari, xorijiy davlatlar bank xizmati veb-saytlaridagi materiallar xizmat qildi.

Tahlil va natijalar

Mamlakatimizda tadbirkorlarning chet ellardagi moliyaviy texnologiya kompaniyalari va mutaxasisilari bilan aloqalari maqtanarli darajada emas. Chunki chet tillarni bilmaslik, bu sohadagi yangi adabiyotlarning mavjud emasligi yoki kamchiligi, yangi texnologiyalarga qiziqmaslik yoki ularni tushunmaslik innovatsion texnologiyalarni mamlakatimizda joriy qilish uchun o'ziga xos to'siq bo'lib turibdi. Ichki investitsiyalar uchun juda muhim bo'lgan kapitalning chet ellardagi nazoratsiz oqib ketayotganligi va yangi innovatsion texnologiyalar bo'yicha ta'llim jarayoning juda ham sust bo'lib qolganligi. Yuzlab milliard dollarlik kattalikka ega bo'lgan jahon internet bozorining rivojlanishi nafaqat tadbirkorlar uchun qiziqarli, balki investorlarni ham o'ziga jalb qiladi. Chunki bu sohada tavakkalchilik miqdori ancha katta bo'lishiga qaramay, elektron biznesga bo'lgan investitsiyalar 3-5 yilgahca bo'lgan muddatlarda Forbes ning ma'lumotlariga ko'ra, 1000% gacha daromad keltirishi mumkin ekan. Shuning uchun ham venchur fondlar elektron biznes

yo‘nalishidagi loyihalarga ularning boshlang‘ich bosqichlaridayoq yaxshi niyat bilan pullar jalg qiladilar.

Markswebb konsalting agentligi O‘zbekistondagi jismoniy shaxslar uchun eng qulay mobil banklar bo‘yicha Mobile Banking Rank Uzbekistan 2022 tadqiqoti natijalarini e’lon qildi¹.

Tadqiqotning maqsadi jismoniy shaxslar uchun eng mashhur 10 ta mobil bankda mijozlar tajribasi sifatini baholash edi. Reytingni tuzish uchun Google Play platformasida 500 mingdan ortiq marta yuklab olingan bank mobil ilovalari tanlab olindi. Taqqoslash 700 dan ortiq mezon bo‘yicha amalga oshirilgan, tadqiqotning asosiy yo‘nalishi debet kartalarini boshqarishdir. Kredit mahsulotlari faqat ikkilamchi sotish nuqtai nazaridan ko‘rib chiqilgan.

Markswebb tadqiqotchilari xususiy mijozlar uchun eng ommabop 10 ta mobil bank moliyaviy muammolarni qanday hal etishi va O‘zbekistonning jadal rivojlanayotgan bozorida qanday raqobatbardosh ustunlikka erishish mumkinligini aniqladi.

1	Bank Apelsin	47,7
2	Click	44,3
3	TBC Bank Узбекистан	43,5
4	Банк «Ипак Йули»	41,8
5	Узнацбанк	40,3
6	Anorbank	37
7	Invest Finance Bank	36,5
8	Agrobank	35,1
9	Ипотека Банк	25,5
10	Xalq Bank	22,4

1-rasm. O‘zbekistondagi eng qulay mobil banklar reytingi².

Foydalanuvchilar uchun eng qulay mobil banklar deb Bank Apelsin, Click va TBC Bank Uzbekistan ilovalari qabul qilindi.

Raqamli bankning bir turi hisoblangan TBC bank mobil ilovasida mavjud imkoniyatlar:

- NFC orqali Face ID bilan oson ro‘yxatdan o‘tish;
- Qulay interfeys;
- Aqli o’tkazma;
- Kartalarni buyurtma qilish va yetkazib berish;
- Valyuta ayirboshlash operatsiyalar;
- Xizmatlar bo‘yicha to’lovlar;
- Kreditlarni rasmiylashtirish;
- Omonatlarni ochish va boshqarish;
- Life ID orqali xavfsizlikni boshqarish;

¹ Markswebb (2022). Mobile Banking Rank Uzbekistan.

² <https://depozit.uz/news/>

- Kartalarni bloklash;
- Hisob-raqam;lar va kartalar o‘rtasida o‘tkazmalar;
- Kartalar va hisob-raqamlar bo‘yicha na’lumotnomma va ko'chirmalar.

TBC Bank Uzbekistan keng qamrovli tajribani taqdim etuvchi raqamli bank. Ilova qo’shimcha vazifalarni bajarishda yuqori sifatli mijozlar tajribasini taqdim etadi: xizmat ko’rsatish shartlarini tezda bilib olish, tranzaktsiyalar tarixidan kerakli ma'lumotlarni topish, shaxsiy mahsulotlarda tez va oson boshqara olish.

Telefon raqami yoki karta bo'yicha birinchi marotaba ilovaga kirish qulay tarzda tashkil qilingan. Keyingi kirishlarni qisqa kod yoki Touch ID orqali sozlash mumkin.Oson navigatsiya, debet kartalari dizayn orqali osongina aniqlanadi. Shablonlarda har xil turdag'i to'lovlar mavjud, provayderlarning logotiplari bor.

Pul o‘tkazmalarining tanlovi kamligi kamchiligi hisoblanadi: elektron hamyonga pul o‘tkazish, boshqa banklardagi qarzlarni to’lash, Davlat Yo'l harakati xavfsizligi inspeksiysi va MFOlarga jarimalarini to’lash mumkin emas, mablag' yig'ish funktsiysi va ta’lim xizmatlari uchun to’lov yo'q. Ilovada bankomatlar va bank filiallari ko’rsatilmaydi.

Banklar rivojlanish strategiyasining asosi-mijozlarga yo‘naltirilganlik bo‘lib,

u o‘zida bir qator elementkarni o‘z ichiga oladi. Jumladan, sezgirlik va yordam berish istagi, yondashuvning soddaligi, odamlarga hayotda va biznesda bir qadam oldinda bo‘lish imkoniyatini berish, har qanday mijozga individual yondashuvni saqlab qolish va ma'lumotlarni qayta ishlashda xavfsizlikni ta'minlash bilan har qanday so'rovni iloji boricha tezroq bajarishga yo‘naltirilgan.

TBC bank mobile ilovasidagi texnologiyalarni boshqa tijorat banklari mobile ilovlariga namuna sifatida ko’rsatish va mobile ilovalarni yanada takollashtirishga turtki bo‘lishiga yaqqol misoldir.

Xulosa

Bank sohasini raqamlashtirish jarayonlari zamonaviy texnologiyalar va mijozlar ehtiyojlari bilan hamohang rivojlanib, moliviy xizmatlar sifatini oshirish va operatsiyalar samaradorligini ta’minlashda muhim o‘rin tutmoqda. Tadqiqotda qayd etilganidek, raqamli texnologiyalarning joriy qilinishi orqali banklar o‘z xizmatlarini yangi bosqichga olib chiqmoqda, bu esa mijozlar uchun qulay va xavfsiz muhit yaratadi. O‘zbekiston bank sektorida raqamlashtirish jarayonlarining rivojlanishi, ayniqsa, pandemiya davrida keskin tezlashgan bo‘lib, masofaviy xizmatlar, mobil ilovalar va onlayn bank imkoniyatlari kengaytirildi.

Raqamli texnologiyalarni joriy qilish mijozlar ehtiyojlarini tez va aniq qondirishda muhim omil bo‘lib, bu xizmatlarning sifatini oshirish bilan birga, banklar o‘rtasidagi raqobatni kuchaytiradi. Tadqiqotlarda ta’kidlanganidek, innovatsion xizmatlar, jumladan, Humo Pay, NFC, QR-to‘lov tizimlari va boshqa elektron to‘lov xizmatlari, bank xizmatlarini yanada qulay qilishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, O‘zbekistonda Payme, Click, Paynet kabi nobank tashkilotlarning faoliyati raqamli ekotizimni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ularning faoliyati banklar uchun ham raqobat muhiti yaratib, mijozlar uchun ko‘proq tanlov imkoniyatlarini taqdim etmoqda.

Banklarning raqamli transformatsiyasini yanada rivojlantirish uchun davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash, xususan, “Raqamli O‘zbekiston – 2030”

strategiyasini amalga oshirish jarayonida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar katta ahamiyatga ega. Bu strategiya banklar faoliyatini yanada modernizatsiya qilish, moliyaviy xizmatlarning raqamli ko‘rinishlarini kengaytirish va axborot xavfsizligini ta’minlashga yo‘naltirilgan.

Kelajakda O‘zbekiston bank tizimi uchun raqamli iqtisodiyotning joriy etilishi bank xizmatlari doirasini yanada kengaytirish, moliyaviy xizmatlardan foydalanishni osonlashtirish va mijozlar ehtiyojlariga javob beradigan innovatsion echimlarni yaratishda katta ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, mijozlarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish, onlayn operatsiyalar xavfsizligini ta’minlash va bank sohasida xalqaro raqamli standartlarga moslashish ham dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida PF-6079-son farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 6.10.2929-yildagi "Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-4851-sonli qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.04.2020 yildagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4699-son qarori
4. Кулагин В., Сухаревски А., Мефферт Ю. (2019). Digital@Scale : Настольная книга по цифровизации бизнеса.
5. Чайкина Е.В. (2018). Цифровая экономика: новые возможности для банков.
6. Быков А.Ю. (2019). Цифровая экономика и будущее золотого стандарта.
7. Азларова А.А., Рахматиллаева М. (2020). Трансформация банковского сектора.
8. Ахмедов У. (2018). Готовы ли банки Узбекистана к цифровому рывку?
9. Мамедов М.А. (2021). Анализ влияния финансовых технологий на банковский сектор.
10. Pasupa K., Tungjitnob S., Suntisrivaraporon B. (2018). Mobile Banking.
11. Francis B., Hasan I., Külli A.M. (2018). Should banks diversify or focus? Know thyself.
12. Kotov K.Yu. (2019). Классификация банковских инноваций в цифровой экономике.
13. Measuring the Information Society Report. Volume 1. - Geneva: ITU, 2017. -156 p. 5. 3.Measuring the Information Society Report. Volume 2: ICT country profiles. - Geneva: ITU, 2017.-252 p.